



AGIOGRAFIK MATNLARNING KONTEKSTUAL TAHLILI

*O'zDJTU Roman-german filologiyasi fakulteti
Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasi stajyor-o'qituvchisi
Egamberanova Dilafruz Baxtiyorovna*

Annotatsiya: So'nggi yillarda o'zbek adabiyotshunosligida shakl va mazmun jihatidan yangilanish tamoyillari rivojlanib ketdi. Ayniqsa, milliy adabiyotimizning yorqin namunalari bevosita va bilvosita chet tillariga va aksincha dunyo adabiyotining nodir asarlari o'zbek tiliga mohir tarjimonlarimiz tomonidan tarjima qilinib, keng kitobxonlar e'tiboriga havola etildi.

Tadqiqot doirasida ham o'zbek tilidan fransuz tiliga va fransuz tilidan o'zbek tiliga o'girilgan asarlardan tanlab olingan agiomatnlar tahlil qilinib ularning asliyatga muvofiqlik darajasiga baho berildi. Tahlil uchun Al-Buxoriyning "Oltin silsila" asari, Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani", "O'zbekiston ziyoratgohlari va muqaddas qadamjolari" katalogi, fransuz yozuvchilaridan Emil Zolya, Prosper Merime, Stendal, Bernarden de Sen Pyer, Amin Maaluf asarlari va ularning tarjima variantlaridan tanlab olingan agiomatnlardan foydalanildi. Asosan, tarjimaning asliyatga muvofiqlik darjasini, ya'ni shakl va mazmun mutanosibligi, kontekstual ma'no ifodasi, badiiy-lisoniy, milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: aksikologiya, agiografik termin, ilmiylik, fenomen, e'tiqod, qadriyat, aksiologik dominant, tadqiqot, ksenolaliya

Аннотация: В последние годы в узбекском литературоведении развиваются принципы обновления формы и содержания. В частности, яркие образцы нашей национальной литературы напрямую и косвенно переводятся на иностранные языки, и наоборот, редкие произведения мировой



литературы переводятся на узбекский язык нашими искусствами переводчиками и доводятся до сведения широкой аудитории.

В рамках исследования были проанализированы избранные агиоматы из произведений, переведенных с узбекского на французский и с французского на узбекский язык, и дана оценка степени их соответствия оригиналу. Для анализа были использованы произведение Аль-Бухари «Золотая цепь», роман Чолпон «Ночь и день», каталог «Святыни и святые места Узбекистана», произведения французских писателей Эмиля Золя, Проспера Мериме, Стендalu, Бернардена де Сен-Пьера, Амина Маалуфа и варианты их переводов. В основном сопоставительно анализировались степень соответствия перевода оригиналу, то есть соотношение формы и содержания, выражение контекстуального значения, художественно-языковые, национально-культурные особенности.

Ключевые слова: аксиология, агиографический термин, научность, феномен, вера, ценность, аксиологическая доминанта, исследование, ксенология

Annotation: In recent years, principles of renewal of form and content have been developing in Uzbek literary studies. In particular, bright examples of our national literature are directly and indirectly translated into foreign languages, and vice versa, rare works of world literature are translated into Uzbek by our skilled translators and brought to the attention of a wide audience.

The study analyzed selected hagiomata from works translated from Uzbek into French and from French into Uzbek, and assessed the degree of their correspondence to the original. The analysis used Al-Bukhari's work "The Golden Chain", Cholpon's novel "Night and Day", and the catalog "Shrines and Holy Places of Uzbekistan" works by French writers Emile Zola, Prosper Mérimée, Stendhal, Bernardin de Saint-Pierre, Amin Maalouf and their translations. The



degree of correspondence between the translation and the original was mainly analyzed comparatively, i.e. the relationship between form and content, the expression of contextual meaning, artistic and linguistic, national and cultural features.

Keywords: axiology, hagiographic term, scientific nature, phenomenon, belief,

value, axiological dominant, research, xenolalia

Cho‘lpon nafaqat she’riyat, balki nasrda ham o‘ziga xos uslubga ega ijodkordir. Cho‘lpon singari o‘zbek adabiyoti namoyondalarining mahorat sirlarini o‘rganish XX asr adabiyotining ijtimoiy-estetik mohiyatini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani qariyb 80 yildan buyon qo‘ldan-qo‘lga o‘tib kelmoqda. Asar ikki qismidan iborat bo‘lib, dastlabki – “Kecha” qismi bizgacha yetib kelgan, “Kunduz” deb atalgan ikkinchi qismi haqida esa ma’lumotlar mavjud emas. Kitobda o‘zbeklarga xos andisha, himmat, iffat va soddalik kabi fazilatlar bilan birga xotinbozlik va mol-mulk orttirish yo‘lidagi illatlar ham o‘z in’ikosini topgan. Bu kabi fazilatlarlar va illatlar qarama-qarshiligi kitobxonni chuqur mushohada yuritishga undaydi. Cho‘lpon dunyosi, uning olami, ijodidagi nafislik va serjilolik har bir kitobxonni o‘ziga jalb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda yoshlarning milliy ma’naviyatini shakllantirishda ushbu roman muhim o‘rin tutadi. “Kecha va kunduz” romani fransuz tiliga sharqshunos olim, tarixchi va tarjimon Stefan Dyuduagon tomonidan tarjima qilingan bo‘lib, mazkur asarda milliy-madaniy realiyalar va agiografik terminlarni juda ko‘p uchratishimiz mumkin. Asar o‘zbek tilidan bevosita fransuz tiliga tarjima qilinib, Fransiyada nashr etilgan. Mazkur romanning fransuzcha tarjimasi borasida ilk tadqiqot tarjimashunos olima Raima Shirinova tomonidan yaratilgan. Olima o‘zining badiiy asarlar tarjimasida olam milliy manzarasining



qayta yaratilishi borasida yozgan monografiyasida bir qancha ilmiy tahlillarni keltirib, asar tarjimasi to‘g‘risida asosli munosabat bildirgan¹.

Aslida san’at asari, xususan, roman va jamiyat hayotining badiiy-uslubiy tahlili bir-biridan ajralmas hodisa bo‘lib, ularni o‘zaro uzviy aloqadorlikda o‘rganish “Kecha va kunduz” ning XX asr o‘zbek romanchiligidagi tutgan o‘rni va jahon romanchiliga mushtarak jihatlarini kuzatishga imkon beradi. Biz ham o‘z tadqiqotimizda agiografik terminlar berilishini mazkur asardan tanlab olingan kontekstlar misolida qiyosiy tahlil qildik. Misollarga murojaat qilamiz.

Asliyatda:

“Otasi **bomdoddan** kirmagan, onasi sigir sog‘ish bilan ovora, o‘zi kichkina sahnani supurib turgan vaqtida tashqari eshikning besaranjom ochilishi Zebining ko‘nglini seskantirib oldi”².

Tarjima varianti:

“Son père n’était pas rentré encore de la **prière de l’aube**, sa mère était occupée de traire la vache, et elle-même nettoyait la cour, lorsque le portillon s’ouvrit avec fracas, lui glaçant le cœur»³.

Demak, tarjimon fransuz kitobxonlariga mazkur matnda berilgan agiografik termin ishtirok etgan matn mazmunini asliyatdagidek ochib berishga harakat qilgan. Natijada, mazkur axborot, ya’ni ma’lum bir voqeа sodir bo‘ladigan joy, makon, holat, madaniyat to‘g‘risidagi madaniy ma’lumot o‘quvchiga to‘g‘ri yetkazib berilgan desak, xato bo‘lmaydi. So‘zma-so‘z tarjima qilish asarning mazmun mohiyatini ifodlay olmaydi. Shu bois, badiiy tarjima asl nusxadan bir qancha farq qilishi mumkin. Yozuvchi – tarjimon asl nusxaning ma’nosini matnda to‘g‘ri bera olmasa, ushbu matnning o‘z tushunchasi bo‘yicha o‘zlashtirib beradi.

Navbatdagi misol, **asliyatda** :

¹ Shirinova R.X. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi. Avtoref.diss.. fan doktori (DSc). – Toshkent, 2017.

² Cho ‘Ipon. Kecha va kunduz. –Toshkent.: Hilol media. 2019. –B.4

³ Tchulpán. Nuit. –Saint-Pourçain-sur-Sioule.: Bleu autour. 2009. –P.10



“Otasining odatdagи tomoq qirish va yo‘talishlar bilan, katta eshikning og‘ir zanjirini sharaq-shuruq qilib tushirib, namozga chiqib ketganiga hali ko‘p o‘tmagan edi”⁴.

Tarjimada : “Ce ne pouvait pas être son père car, toussant et se raclant la gorge comme il en avait l’habitude, il venait de sortir pour la mosquée en faisant jouer la chaîne de la grand-porte.”⁵.

Asliyatda: “Qish ichi ham keti uzilmagan sovchilar bir-ikki haftadan beri kelishdan to‘xtaganlar, endi tashqari eshikning “g‘iyт” etishi – bir-ikki ayolning astagina bosib, **paranjisini** sudrab kirib kelishiga dalolat qilmas, hali endigina o‘n beshga qadam qo‘ygan bu yosh qizning go‘dak ko‘nglini uncha cho‘chitmas edi”⁶

Tarjimada: “Désormais, le grincement du portillon n’annoncerait plus l’arrivée discrète des mêmes bonnes femmes traînant leur **parandji**, il ne ferait plus tressauter le cœur d’enfant de la jeune fille, qui venait à peine d’atteindre ses quinze ans”⁷ .

Tarjimon “haj”ni “à La Mecque”, “so‘fi” ni “un muezzin”, “payg‘ambar” – “Prophète” deb o‘girib o‘zbek tilidan fransuz tiliga to‘laqonli tarjima yaratishga erishgan. Bunday misollar qatorini davom ettirishimiz mumkin.

Asliyatda:

“Faqat so‘fi ko‘ngildan va uning nozik shishasidan bir narsa anglaydigan odam bo‘lmaganligidan bu kattakon ishning oqibatini xayol qilgan vaqtlarida “kelasi yilga (**inshollo!**) hajga ketish nasib bo‘ladi”, degan umidlar bilan xursand bo‘lardi...”⁸ .

Tarjimada: “Des “minauderies” qui ne pouvaient avoir d’autre cause qu’un accès de sentimentalité: n’étant pas de ceux qui se soucient du coeur des femmes ni de sa fragile architecture, le soufi se réjouissait désormais en songeant au

⁴O‘sha asar. –B.4

⁵ Idem. –P.10.

⁶ Cho‘lpon. Kecha va kunduz. –Toshkent. : Hilol media. 2019. –B.4

⁷ Tchulpân. Nuit. –Saint-Pourçain-sur-Sioule.: Bleu autour. 2009. –P.10

⁸ Cho‘lpon. Kecha va kunduz. –Toshkent. : Hilol media. 2019. –B.4



bénéfice de cette grandiose affaire, c'est-à-dire à la perspective de se rendre “l'année prochaine à La Mecque, inchâ'Allah !”⁹.

Navbatdag'i misolga e'tibor qaratmoqchimiz, **asliyatda**:

“Ko‘p o‘tmasdani, so‘fini chaqirib chiqdi. Uni shohid qilib turib, nikohimizni o‘qidi. So‘figa ham bir narsa berdik. Shu bilan mening nomim o‘zicha qolib, yangi xotinimning nomi “Bibi Maryam Oysha qizi” bo‘ldi...”¹⁰.

Tarjimada: “Il fait tout de suite appeler un muezzin, qu'il désigna comme témoin, et célébra notre mariage. Nous donnâmes aussi quelque chose au muezzin. Je gardais mon nom, tandis que Mariam devenait “Bibi Mariam, fille d'Aïcha”¹¹.

Yana bir misol, **asliyatda**: “Dunyoviy ilmlarni o‘qish ham shariatimizda bor, chunonchi, janobi hasti payg‘ambarimiz “utlubudilmu valavkana bissi”, ya’ni “Chin mulkida, ya’ni Xitoyda bo‘lsa ham ilm talabida bo‘lg‘il”, deganlar. “Bu hadisi sahib”, dedim”¹².

Tarjimada: “C'est notre vénéré Prophète lui-même – que le salut et la paix de Dieu soient sur lui-qui l'a dit: “Utlub ud ‘ilmu walawkana bi’ssi” ce qui signifie bien: “Mets-toi en quête de la science, même si elle se trouve en Chine”. Et ça, c'est **un hadith** digne de foi”¹³.

Ma'lumki, XX asr boshlarida fransuz adabiyoti bevosita va bilvosita o‘zbek tiliga tarjima qilinib, keng o‘zbek kitobxonlari ommasiga tuhfa qilindi. Navbatdag'i misollarda fransuz adiblari asarlarining bevosita va bilvosita tarjimalarida uchragan agioterminlar va ularning tarjimalarini tahlilga tortdik. Masalan, Prosper Merimening bir qator asarlari - “Karl IX sultanatining yilnomasi”, “Tamango”, “Karmen” kabi asarlari o‘zbek tiliga vosita tili orqali tarjima qilingan. Mohir tarjimon Ozod Sharafiddinov Prosper Merimening “Arsena Giyo” novellasi

⁹ Tchulpân. Nuit. –Saint-Pourçain-sur-Sioule.:Bleu autour. 2009. –P.10

¹⁰ O‘sha asar. –B.210

¹¹ Idem. –P.285

¹² Cho‘lpon. Kecha va kunduz. –Toshkent. : Hilol media. 2019. –B.283

¹³ Tchulpân. Nuit. –Saint-Pourçain-sur-Sioule.:Bleu autour. 2009. –P.326



tarjimasida asliyatda berilgan “abbé” ni goh “kashish”, goh, “abbat”, “ruhoniy”, “kyure” kabi bir qancha leksemalar orqali ifodalagan.

Masalan: “Oui, un reproche. J'avais remarqué sa position : j'aurais dû lui envoyer des recours ; mais le pauvre abbé Dubignon était au lit, et... ”¹⁴.

Vosita tilidagi tarjima:

Да, виновата, я видила ее тяжелое положение и должна было помочь ей, но, к сожалению, **аббат** Дюбиньон заболел, и... ”¹⁵

Ozod Sharafiddinov tarjimasi:

“ – Ha aybdorman! Uning ahvoli nochorligini ko‘rgan edim. Unga nafaqa jo‘natishim kerak edi. Ammo buzruk Dyubinonning xastaligi tufayli... ”¹⁶ .

Mazkur bevosita va bilvosita tarjimada agioterminlar tarkibiga kiradigan din peshvolarning mansablari va darajalari chalkashtirib yuborilgan. To‘g‘ri rus tarjimoni aynan asliyatdagidek ya’ni fransuz tilida berilgan “abbé ” rus tilida “abbat” deb to‘g‘ri o‘girgan. Chunki fransuz tilida “abbat” leksemasiga quyidagicha izoh berilganligi o‘zini to‘la oqlaydi:

“**Abbé**. Dans l’Église catholique et orthodoxe, supérieur d'un monastère d'hommes érigé en abbaye. Titre donné à un prêtre séculier ”¹⁷.

Abbat katolik va provoslav cherkovida abbatlik sifatida tashkil etilgan erkaklar monastirining boshlig‘i. Dunyoviy ruhoniya berilgan unvon hisoblanadi (Tarjima bizniki D.B). O‘zbek tilining izohli lug‘atida “**abbat**” leksikasiga qisqagina izoh keltirilgan: “Abbat katolik erkaklar monastirining boshlig‘i. Fransiyada katoliklar ruhoniysi” ¹⁸.

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida esa mazkur atama o‘zbek tilining izohli lug‘atiga qaraganda kengroq ochib berilgan:

¹⁴ Merime. Carmen et treize autres nouvelles. Paris, Gaullimard. 1984 . –P . 36.

¹⁵ Мериме. Собрание сочинений в 4 томах. –Москва, 1983. – С. 12.

¹⁶ Merime Prosper. Karl IX saltanatining yilnomasi. –Toshkent, 1978. –B. 396

¹⁷ <https://eglise.catholique.fr/glossaire/abbe/>

¹⁸ O ‘zbek tilining izohli lug‘ati. Moskva: Rus til nashriyoti, 1981. –B. 21.



“Abbat (lot. abbas, oromiy tilida abo — ota) 1) katolik monastiri - abbatlik boshlig‘i. 2) Fransuz katolik ruhoniysi unvoni”¹⁹.

“Ruhoniy – diniy lavozimda xizmat qiluvchi, dinni targ‘ib etuvchi kishi, din peshvosi. Ruhoniy buddizm, iudaizm, xristianlik, hinduiylik, islom va b. dinlarda mavjud. Ruhoniy monoteistik dinlar kelib chiqishi bilan paydo bo‘lgan. Kohinlar ruhoniylarning o‘tmishdoshi hisoblanadi. Ruhoniylarning oliv tabaqasiga Xudoning yerdagi noibi (katolisizmda – Rim papasi) yoki Xudoning unda mujassam bo‘lishi (lamaizmda–dalaylama, ismoiliylarda firqa boshlig‘i) deb e’tiqod qilinadi”²⁰ tarzida izohlangan.

Fransuzcha lug‘atda “un prêtre” quyidagicha izohlangan:

“Chrétien qui, par l’imposition des mains au moment de l’ordination par l’évêque, reçoit la mission de rendre présent le Christ parmi les hommes, en célébrant l’eucharistie, en pardonnant les péchés, en instruisant et guidant le peuple qui lui est confié”²¹.

Tarjimada: Ruhoniy, yepiskop tomonidan tayinlanish paytida qo‘llarini krest qilib gunohlarni kechirish, o‘ziga ishonib kelgan odamlarga yo‘l yo‘riq ko‘rsatish orqali masihni odamlar orasida ishtirok etish vazifasini oladi.

O‘zbek va rus tilining izohli lug‘atlari va fransuz tilidagi lug‘atlarda abbat, ruhoniylarning leksemalari ta’rifini ko‘rib chiqdik. Lug‘atlar yordamida amalga oshirilgan tahlillar shu narsani ko‘rsatdiki abbat, ruhoniylarning kyure atamalari mutlaqo bir-biriga sinonim bo‘la olmaydi. Mazkur atamalarni tarjima jarayonida o‘z muqobili orqali berish lozim. Ularning kontekstda turlicha berilishini qat’iy tanqid qilgan xorijlik olim Moxammedi Ladan o‘z tadqiqotlarida diniy matnlar tarjimasida sinonim sifatida, bir-biriga nomutanosib atamalarni tarjima matniga olib kirish yoki asliyatdagi diniy atamani tarjimada bir nechta variantda berilishi masalalarini o‘rgangan. Olim Bibliya va Qur’onda diniy atamalarning berilishi, atoqli otlar

¹⁹O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –Toshkent, 2004. –B.5

²⁰Qomus.info. Online Ensiklopediya. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-r/ruhoniy-uz/>

²¹<https://eglise.catholique.fr/glossaire/pretre>



tarjimasi hamda atoqli otlarni turli xil sinonimlar bilan ishlatilishini chuqur tahlil qilib badiiy asarlar tarjimasida ularni bir xil sinonimik qatorda ishlatish mumkin.

Diniy asarlar, hadis va oyatlarni arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan o‘zbek olimlarining xizmatlari beqiyos, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, bunday kitoblar arab tilidan o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girilgan va o‘zbek o‘quvchilarini qimmatli ma’lumotlardan boxabar qilishdek sharaflı ishni amalgalashirishgan. Ularning mahoratini, o‘z ishining ustasi ekanliklarini ushbu asarda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Xususan, “Oltin silsila” da keltirilgan «U bilan bizning oramizdagi urush «sijol»dir” – jumlasida sijol atamasi aslida quduqdan bir xil suratda navbatma-navbat suv olishga aytildi. Dushman bilan jangda goh yutib, goh yutqazishni shunga o‘xshatishgan. Fransuz tarjmoni bu tushunchani “des alternatives” – navbatma-navbat, o‘zgarib turuvchi, deya o‘rinli tarjima qilgan. Biz tadqiqot doirasida taklif qilgan retrospektiv baholash modeliga tayangan holda aytishimiz mumkinki, asliyatdagi barcha lisoniy va madaniy elementlarni tarjima tilida to‘liq ko‘chishiga e’tibor berish lozim chunki matn mazmunini olib berishga xizmat qiladigan lisoniy birliklarning tushib qolishi butun bir kontekstning mazmunini buzilishiga olib kelishini ta’kidlab o‘tish lozim.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tarjimonlar asliyat tilida so‘zlashuvchi xalqning diniy ta’limotlari, tarixi, e’tiqodini bilmasliklari natijasida katolik cherkov tuzilishi hamda xristian diniy marosimlari va kundalik amaliyotidan yetarli darajada xabardor emasliklari sababli tarjima jarayonida asliyat va tarjima tilidagi agiografik terminlarni qorishtirib yuborganliklari kuzatildi. Bu esa nafaqat tarjima sifatini balki resepiyentda u yoki bu xalqning madaniyati, tarixi, urf-odatlari to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otishi mumkin. Shuning uchun ham bu borada tarjimonlar uchun aniq me’yorlarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Albatta, badiiy tarjimada ayrim so‘zlarning noto‘g‘ri o‘girilganligi original asarning ruhi va uslubi buzilishiga olib kelishi muqarrar.



O‘zbek tilidan fransuz tiliga va aksincha fransuz tilidan o‘zbek va rus tillariga tarjima qilingan asarlar tarjimasini tahlil qilish jarayonida tarjimonlar asosan agiografik terminlar tarjimasida quyidagi **uslublardan** foydalanganlarini kuzatamiz:

- 1)agiografik terminlarni **transliteratsiya usulida** berish;
- 2)**to‘liq tarjima qilish**;
- 3)**kalkalash usulidan** foydalanish;
- 4)**tushurib qoldirish**:
- 5)tarjima tilida **mavjud anologi** bilan almashtirish.

Til materiali tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjimonlarimiz agiografik matnlarni tarjima qilishda turli xil usul va nazariyalarni qo‘llaganlar, ba’zilari asliyatga yaqinlashib adekvat tarjima yaratgan bo‘lsalar, boshqalari esa erkin tarjima yo‘lidan borib asliyatdagи aksiologik olam manzarasini buzilishiga sabab bo‘lganlar. Asosli tahlillar va dalillarga asoslanib, agiorafik terminlarni tarjima qilishning quyidagi usullarini ishlab chiqdik.

- 1)Agiomatnlar tarjimasida tarixiy, diniy, falsafiy, madaniy bilimlarga asoslanish;
- 2)agiografik terminlarni matn ichida izohlash;
- 3)agiografik terminlarni tarjima matnida berishda implisit va eksplisit ifoda vositalaridan foydalanish.

Tarjima san’atida bir nozik jihat borki, mahoratli tarjimonlar ham milliy-madaniy xususiyatga ega kontekstlarni o‘girishda har doim ham to‘la muvaffaqiyatga erishavermasliklari mumkin. Ayniqsa, katta hajmli asar o‘girilar ekan, u yoki bu o‘rinda shakl mutanosibligini saqlash uchun mazmunga ziyon yetkazadi, yoxud aksincha, mazmunni to‘liq aks ettirish uchun shaklga putur yetishi mumkin. Askar Mahkamning sermashaqqat ijodiy va ayni damda tanqidiy ishida xam bu kabi jihatlar ko‘zga tashlanadi. Aytaylik, quyidagi baytda matnning asl mazmuni to‘la ochib berilmagan, ammo umumiy ma’no yetkazib berilgan.



“Tarjimada so‘zni emas, ma’noni berish muhim. Shuning uchun so‘zma-so‘z tarjimadan qo‘chishga da’vat qilinadi. Lekin ba’zida so‘zma-so‘z tarjima qilish imkoniyati ham mavjud bo‘ladi, ya’ni asliyat aynan – so‘zma-so‘z tarjima matniga ko‘chadi. Bunday imkoniyatdan foydalanish kerak. Chunki so‘zma-so‘z tarjima muayyan hollarda qonuniy hodisadir. Ayniqsa, yaqin tillardan tarjimada so‘zma-so‘z o‘girish imkoni ko‘proq. Oddiy jumlalarnigina emas, ba’zida hatto frazeologizmlarni ham so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin va o‘zini oqlagan o‘rinlarda bu usulni rad etib bo‘lmaydi²²”

F.D.Sapayeva Maxtumquli she’rlarining o‘zbekcha tarjimalarini tahlil qilib diniy mavzudagi she’rlar tarjimasini asliyat bilan qiylaganda, barcha tarjimonlar diniy atamalar, e’tiqodiy tushunchalar, islomiy urf-odat va marosimlar, payg‘ambar va avliyolar nomi, ular bilan bog‘liq mo‘jiza va voqealarga ishoralar tarjimasida ko‘plab xato-kamchiliklarga yo‘l qo‘yganlari ma’lum bo‘ladi. Maxtumqulining diniy-ma’rifiy mazmundagi she’rlari tarjimalarida tarjimonlar tomonidan quyidagi ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgani kuzatildi: mafkura ta’sirida diniy mazmundagi bandu baytlarni qisqartirib ketish; hukmron mafkura tufayli matnlarni o‘zgartirish; diniy atama-tushunchalarni tushunmay noto‘g‘ri talqin etish; ilohiy kitob, farishta, payg‘ambarlar, avliyolar va diniy shaxslar nomini tarjimada xato berish; she’rlardagi ayrim noto‘g‘ri tarjima qilingan so‘zlarga havolada ham xato izohlar berish va boshqalar. Bunday nuqsonlar, birinchidan, mafkuraviy tazyiqlar kuchaygan sho‘ro zamonidagi adabiy siyosat bilan, ikkinchidan esa, tarjimonlarning islom diniga doir ta’limotni puxta egallash uchun imkoniyatlari bo‘limgani bilan ham izohlash o‘rinli bo‘ladi²³.

XULOSA

Aslida, boshqa tillardan tarjima qilingan asarlar o‘z badiyati, ta’sir quvvati bilan o‘quvchilar ommasiga zavq berishi, qalbini go‘zallikka oshno qilishi lozim.

²² Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: Sharqshunoslik instituti, 2014. – B. 73.

²³ Sapayeva F.D. Maxtumquli she’rlari o‘zbekcha tarjimalarini qiylisy tahlili. Filol.fan.nomz... avtoreferati. Toshkent, 2018. –51b



Badiiy ijodning tub mohiyati, so‘z san’atining spesifik tabiatiga taalluqli bo‘lgan bu xususiyat ortiqcha isbot talab qilmaydi. Shu ma’noda, badiiy tarjimaga so‘z orqali qayta yaratish san’ati sifatida qarash o‘rinlidir. Tarjimada so‘zning o‘rni beqiyos. Topib o‘rniga qo‘yilgan birgina so‘z tarjimaga badiiy tus-rang berishi, aksincha, noo‘rin qo‘llangan bitta so‘z ayni shu go‘zallikka dog‘ tushirishi ham mumkin. Zero, G‘.Salomov va N.Komilovlar haqli ravishda ta’kidlaganlar: “Tarjimada so‘zni topib, o‘z joyiga qo‘ya bilish juda muhim ish. Agar bir so‘z yoki ibora, boringki, qandaydir bir grammatik qo‘sishimcha ham o‘z o‘rniga tushmasa yoxud sal yasamaroq chiqib qolsa, butun asarning tarovatiga putur yetishi hech gap emas”²⁴

Shuning uchun, mazkur bobda tarjimonlarning mahorati aynan ularning so‘zga munosabati, u yoki bu so‘zni qanchalik topib, o‘z o‘rnida qo‘llay bilgan-bilmagani misolida ko‘rib chiqildi hamda agiografik termin tarjimasida so‘zning o‘rni, vazifasi, maqomi xususida so‘z yuritildi.

Asliyatda uchragan bunday terminlarni tarjima qilishda tarjimonning shunchalik murakkab muammolarga duch keladiki, bunda u ham milliy koloritni to‘laqonli ravishda aks ettirishi, ham tarjima asarning badiyligini saqlab qolish ustida bosh qotirishi zarur bo‘ladi. Shuni aytish joizki, tarjimon uchun eng afzal muhim qirra ikki millat madaniyati tutashgan joydagi hayotdir. Ushbu hayot davomida turli millatlar madaniyatning o‘ziga xos jihatlari bilan tez-tez to‘qnash keldi. Tarjimon bu madaniyatdagi tafovutlarni aniq tasavvur eta olishi bir madaniyat vakillaridan olingan axborotni o‘zga madaniyat egalariga aniq ravishda yetkaza olishi lozim. Tarjimonlikning o‘ziga xosligi ham aynan shundan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Alessandra Pozzo. Le pouvoir des mots au Moyen Âge. – Turnhout, 2014.
– P.16

²⁴ Salomov G‘., Komilov N. Jahongashta ruboiyalar // Tarjima san’ati (Maqolalar to‘plami). 3-k. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1976. – B.130.



2. Amanturdiyeva Sh.R. O ‘zbek tili matnining funksional-stilistik tadqiqi. Filol.fan.bo ‘yicha falsafa.dok (PhD). diss... avtoref. –Samarqand, 2020. –B .14-15.
3. Anne-Laure Méril-Bellini delle Stelle: Rezension von: Marie-Céline Isaïa / Thomas Granier: Normes et hagiographie dans l'Occident latin (Ve - XVIe siècle). Lyon, 2010. URL:<http://www.sehepunkte.de/2015/03/25475.html>
4. Caroline Philippart, « La traduction dans le domaine hagiographique médiolatin : l’apport de la linguistique quantitative», URL :
<http://journals.openedition.org/rursus/1285>
5. Christelle Rouet-Delarue. Analyse linguistique du discours historien: des sources au genre historique? Linguistique. Université MicheldeMontaigne-Bordeaux,2014. – 446 p.
6. Florence Windmüller. «Apprendre une langue, c'est apprendre une culture.» Leurre ou réalité ?.
7. Mongelli Marco. Narrer une vie, dire la vérité : la biofiction contemporaine. – Paris, 2019. – 450 p
8. Sultonova Sh.M. Muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy xususiyatlari. Filo.fan.bo ‘yicha.falsaf.dok (PhD) diss... avtoref. –Farg ‘ona, 2018.
9. Бикеева Н. Ю. Ср